

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MILLIY MATBUOT QATAG'ONI VA UNING OQIBATLARI

Daler Mirzayev

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, kichik ilmiy xodim (PhD).
e-mail: dalermirzayev93@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3919-2217>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Turkistonda milliy matbuotning shakllanish jarayoni, uning vujudga kelishiga ta'sir etgan siyosiy va ijtimoiy omillar hamda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati sharoitida faoliyat yuritgan jadid matbuoti tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarining tashkil topishi, maqsad va vazifalari, faoliyat yo'nalishlari hamda yopilish sabablari yoritilgan. Shuningdek, rasmiy mustamlaka matbuoti bilan milliy matbuot o'rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshiliklar ochib berilgan. Muallif milliy gazetalar Turkiston xalqining ma'rifiy uyg'onishi va milliy o'zligini anglashida muhim o'rin tutganligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadidchilik, "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", mustamlakachilik.

РЕПРЕССИИ В ОТНОШЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕЧАТИ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Далер Мирзаев

Институт истории Академии наук Республики Узбекистан, младший научный сотрудник (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются процесс становления национальной печати в Туркестане, политические и социальные факторы, повлиявшие на её возникновение, а также история джадидской печати, функционировавшей в условиях колониальной политики Российской империи. В исследовании освещаются история создания газет «Таракий», «Хуршид», «Шухрат», «Осиё», «Самарканд», «Садой Туркистон» и «Садой Фаргона», их цели и задачи, основные направления деятельности, а также причины прекращения их издания. Кроме того, раскрываются идеологические противоречия между официальной колониальной и национальной печатью. Обосновывается значительная роль национальных газет в просветительском пробуждении населения Туркестана и формировании его национального самосознания.

Ключевые слова: Туркестан, джадидизм, «Таракий», «Хуршид», «Шухрат», «Осиё», «Самарканд», «Садой Туркистон», «Садой Фаргона», колониализм.

THE REPRESSION OF THE NATIONAL PRESS AND ITS CONSEQUENCES

Daler Mirzayev

Institute of History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Junior Researcher (PhD).

Abstract.

This article analyzes the formation of the national press in Turkestan, the political and social factors that influenced its emergence, and the history of the Jadid press operating under the colonial policy of the Russian Empire. The study examines the establishment of the newspapers *Taraqqiy*, *Xurshid*, *Shuhrat*, *Osiyo*, *Samarqand*, *Sadoi Turkiston*, and *Sadoi Farg'ona*, their aims and objectives, main areas of activity, and the reasons for their closure. It also explores the ideological contradictions between the official colonial press and the national press. The author argues that national newspapers played an important role in the educational awakening of the people of Turkestan and in the development of national self-awareness.

Keywords: Turkestan, Jadidism, *Taraqqiy*, *Xurshid*, *Shuhrat*, *Osiyo*, *Samarqand*, *Sadoi Turkiston*, *Sadoi Farg'ona*, colonialism.

Kirish. Rossiya imperiyasining Turkistonga bosqini natijasida 1867-yili o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. Imperiya hukumati o'lkada harbiy boshqaruvni joriy etish bilan birga, o'lkani xomashyo manbasiga aylantirish, taraqqiy etib borayotgan rus sanoati uchun bozor hozirlash, aholi orasida ruslashtirish siyosatini amalga oshirish kabi masalalarni asosiy o'ringa qo'ydi.

Yuqoridagi maqsad yo'lida butun xalq va turli ijtimoiy guruhlarining e'tiborini ushbu masalaga qaratish,

mustahkam mafkuraviy qo'rg'on barpo qilish kerak edi [12; 15-b.]. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun asosiy qurollardan biri sifatida o'z matbuotini Turkistonda rus va o'zbek tillarida nashr etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur tadqiqot doirasida Turkiston milliy matbuotining mustamlakachilik siyosati sharoitida shakllanishi, faoliyat yuritishi, milliy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni targ'ib etishdagi o'rni hamda uning tazyiq va qatag'onlarga uchrashi jarayoni turli xil tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqotning manbashunoslik asosini, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, xususan, I-1 va I-461-jamg'armalar materiallari tashkil etadi. Mazkur hujjatlar Turkiston hududida milliy matbuotning shakllanishi, uning faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari, nashrlar ustidan o'rnatilgan senzura hamda matbuot vakillariga nisbatan amalga oshirilgan ma'muriy choralarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda, shuningdek, mustamlakachi ma'muriyatning rasmiy nashrlari — "Turkiston viloyatining gazetasi" va "Turkestanский ведомости" materiallaridan foydalanildi. Mazkur nashrlar, bir tomondan, imperiya ma'muriyatining Turkistondagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga munosabatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, milliy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, jadid ma'rifatparvarlari tashabbusi bilan tashkil etilgan milliy matbuot nashrlari ham tadqiqotning muhim manbalaridan biri sifatida jalb qilindi. Mazkur nashrlar orqali Turkiston ziyolilarining milliy o'zlikni anglash, ma'rifat, ta'lim, jamiyatni isloh qilish va ijtimoiy taraqqiyotga oid qarashlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Milliy matbuot tarixini yoritishda jarayon ishtirokchilari va zamondoshlarining xotiralari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, I. Gasperinskiy va M. Muhammadjonovning xotira va esdaliklarida Turkiston matbuotining shakllanishi, jadidchilik harakatining ma'rifiy faoliyati hamda matbuot vakillarining mavjud siyosiy sharoitdagi faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarni arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali tadqiq etilayotgan jarayonlarning tarixiy mazmunini yanada aniqroq ochib berish mumkin.

Mavzuning ilmiy o'rganilish darajasini aniqlash maqsadida turli tarixiy davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham tahlil qilindi. Jumladan, Ziyov Said, T. Ernazarov, Z. Abdurashidov, I. Dubrovskaya va S. Shodmonovalarning ilmiy asarlarida Turkiston milliy matbuotining vujudga kelishi, uning rivojlanish bosqichlari, nashrlarning faoliyati, milliy-ma'rifiy harakat bilan aloqalari hamda matbuotga nisbatan amalga oshirilgan ta'qib va qatag'on siyosati bilan bog'liq muhim ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur tadqiqotlardagi mavjud daliliy materiallar Turkiston milliy matbuotining tarixiy taraqqiyotini turli nuqtayi nazarlardan baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, arxiv hujjatlari, rasmiy va milliy matbuot nashrlari, zamondoshlar xotiralari hamda tarixshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarning o'zaro qiyosiy tahlili mazkur maqolaning manbashunoslik bazasini shakllantirdi. Yuqorida qayd etilgan manba va adabiyotlar Turkiston milliy matbuotining mustamlakachilik sharoitidagi faoliyati, uning milliy va ma'rifiy mazmuni, shuningdek, matbuot vakillariga nisbatan qo'llanilgan tazyiq, senzura va qatag'on siyosatining mohiyatini ochib berishda maqolaning nazariy hamda metodologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Muhokama

Mustamlakachilarning Turkistondagi birinchi general-gubernatori K. P. Kaufman 1869-yil 6-noyabrda imzolagan 75-sonli farmoyishi bilan "Turkestanский ведомости" va "Turkiston viloyatining gazetasi"ga asos solindi [20; 735-b.]. Aynan shu ikki gazeta uzoq yillar davomida Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri bo'lib, imperiya g'oyalarini keng xalq ommasi orasida yoyib va targ'ib qilib bordilar.

Mustamlakachi hukumat gazeta tahririyatiga xodimlarni jalb qilishga ham alohida e'tibor bilan qaradi. Ular birinchi navbatda imperiya hukumatiga chin dildan xizmat qiladigan xodimlarni tahririyatga jalb qila boshladilar. 1883-yildan "Turkiston viloyatining gazetasi"ga N. Ostroumov bosh muharrir etib tayinlandi [17]. Negaki u chin dildan podshohlik va pravoslavlik manfaatlariga sodiq xizmatkor va qo'riqchi sifatida o'zini "*begona xalqlarni ma'rifatparvar qiluvchi*" deb bilgan [13; 196-b.]. Shuningdek, u atrofiga o'ziga o'xshagan kimsalarni yig'ib olgan edi. V. V. Bartoldning ta'kidlashicha, gazetaning "*muntazam mualliflari Ostroumovning o'z sheriklari*" bo'lgan [13; 196-b.]. Bu holat milliy ziyolilarning gazeta faoliyatida keng ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan. Abdulla Avloniy: "*so'ng zamonlarda bir qancha ochiq fikrlik yoshlar ham gazetaga qalam bilan ishtirok qila boshladilar. Lekin bular ta'sir ijro qila olmag'onlaridan keyin, bu gazetadan ko'ngillari soviy boshladi...*" [3], deb yozadi.

Lekin Turkiston xalqi podshohlik gazetasi g'oyalaridan birmuncha erkinroq bo'lgan nashrlar bilan ham tanishib borgan. Masalan, 1884-yilda nashri boshlangan "Tarjimon" gazetasi 1000 nusxada nashr etilgan bo'lsa, shundan 200 obunachi turkistonliklar edi [14; 111-112-b.]. Bu paytda "Turkiston viloyatining gazetasi"ning bitta soni 80 tiyinga, "Tarjimon" gazetasi esa 3 rublga sotilgan [18; 82-b.]. Shunga qaramay, "Tarjimon" gazetasi obunachilarining soni yildan-yilga oshib borgan, shu jumladan, turkistonliklar orasida ham bu gazetani o'quvchilar ko'payib borgan. Bundan tashqari, Turkiston musulmonlari "Vaqt" va "Yulduz" gazetalarini ham o'qib turishgan. Turkiston "maxfiy idorasi"ning xabariga ko'ra, 1916-yilda "Vaqt" gazetasining muharriri Fotih Karimov Andijon, Qo'qon va boshqa joylarda bo'lib, o'z gazetasi uchun ma'lumotlar to'plagan hamda turkistonlik aholi o'zlarining milliy gazetasi bo'lmaganligidan Orenburgda chiqqan "Vaqt" va Qozonda nashr etilgan "Yulduz" gazetalarini o'qiganligini aniqlagan [19; 67-b.]. Yuqoridagi omillarni ham milliy gazetalar nashr etilguniga qadar turkistonliklarda muayyan immunitet hosil qilish uchun bir yechim deb baholash mumkin.

Turkistonda mustaqil milliy matbuotning shakllanishiga ikki omil to'siq bo'lgan. Bular, birinchidan, iqtisodiy qo'loqlik bo'lsa, ikkinchidan, rasmiy hukumat tomonidan bo'lgan bosimdir. Agar Turkiston ijtimoiy hayotida islohotlarni amalga oshirishga kirishgan milliy ziyolilar guruhi XIX asr oxirlarida shakllanganiga qaramay, ular XX asrning birinchi

o'n yilligidagina mustahkam oyoqqa turishga muvaffaq bo'lganlari inobatga olinsa, bu holat Turkistonda milliy matbuot paydo bo'lishidagi kechikishning eng asosiy omili bo'lishi mumkin [2; 19-b.].

Natijalar

Turkistonda yuzaga kelgan dastlabki o'zbek tilidagi xususiy gazetalarning paydo bo'lishi 1905–1907-yillardagi Birinchi rus inqilobi davriga to'g'ri keladi. Bu inqilob natijasida Rossiya imperiyasi matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo'lgan. Jadid taraqqiyparvari tomonidan nashr etilgan dastlabki gazeta "Taraqqiy" bo'lib, u Ivan Geyerning "O'rta Osiyo umrguzaronligi taraqqiy" gazetasining o'rniga, undan qolgan mablag' hisobiga chiqarilgan. Uning bor-yo'g'i 17 ta soni nashr etilgan. "Taraqqiy"ning birinchi soni 1906-yil 14-iyunda (yangi hisobda 27-iyun) V. Ilinning xususiy bosmaxonasida bosib chiqarilgan. Uning muharriri va noshiri tatar ziyoliysi Ismoil Obidiy edi [21; 49-b.]. Gazetaning asosiy maqsadi millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish bo'lgan. Bu haqda gazetaning ilk sonida quyidagicha ta'kidlangan: *"Gazetamiz 'taraqqiy' nomida o'lub, bora-bora jismi ham ismiga muvofiq o'lub, millatimizni keyin bormog'iga aslo rozi emasdurimiz. Baqadri imkon millati islomni oliy darajada o'lmog'iga va millati islomdagi tijorat, kasb va korning yo'l izlab ittihad qilur"* [1]. Gazeta faoliyatida Shokir Muxtoriy, Ismoil Aliyev, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bahrombek Davlatboyev, Nozimaxonimlar ishtirok etganlar. Gazeta katta umidlar bilan ochilsa-da, 20 ta soni chiqar-chiqmas *"mahalliy aholini inqilobiy harakatga da'vat etuvchi maqolalar chop etgani uchun"* to'xtatildi [21; 49-b.].

Bu gazeta shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo'lgan Ismoil Obidiyga "Taraqqiy" ismi berildi. Bu gazeta elning eng suyib o'qiydigan gazetasi bo'la oldi [3]. Lekin qisqa muddatdan keyin yopildi. Bu ishning asosiy tashabbuskori kim edi?

Milliy gazetalarning ichida to'ng'ichi bo'lgan "Taraqqiy" gazetasi ilk sonlaridan boshlab "Turkiston viloyatining gazetasi" muharririning nazariga tushdi. Umuman olganda, gazetaning birinchi sonidan oxirgi sonigacha har bir maqolaga nisbatan "Turkiston viloyatining gazetasi" mualliflari tanqidiy maqolalar chop ettirib borganlar. Gazeta o'z sahifalarida milliy muharrirlarning shaxsiyati va ular ko'targan muammolarni ilmsizlikka yo'yib, gazeta faoliyatini tanqid qildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Mullo Roji, Zokiruf, Sh., Mulla Olim, Mullo Abdulloh, Mullo Muhammadsolihi, Toshkandlik bir mullo kabi taxallusli imperiyaning sodiq qullaridan foydalandilar [4; 166–173-b.].

Mustamlakachi hukumatning rasmiy gazetalarda "Taraqqiy"ga nisbatan tuhmat va ayblovlarning oshib borishi oqibatida u 4 marotaba javobgarlikka tortilgan. Nihoyat, 1906-yil 20-noyabrda Toshkent okrug sudida "Taraqqiy" gazetasi muharririning ishi ko'rilib, 3,5 soatlik sud yig'inidan keyin matbuot to'g'risidagi qonunni buzganlikda ayblanib, unga 100 rubl miqdorida jarima solingan [21; 50-b.].

Qisqa vaqt tanaffusdan so'ng, turkistonlik ma'rifatparvarlar 1906-yil 6-sentyabrdan "Xurshid" gazetasini nashr eta boshladilar. Muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov bo'lib, haftada bir marta toshbosma (litografiya) usulida chop etilgan. Tahririyatda Munavvarqoridan tashqari Fansurullohbek Xudoyorxonov, Muhammad Rahimhoji Muhiddinxo'jayevlar faoliyat olib borgan. Mazkur gazeta ham "Taraqqiy" yo'lidan borib, millat va yurt manfaatlarini himoya qilishni, uni taraqqiyotga olib chiqishni maqsad qilgan edi. Gazeta muharrirlarining maqsadi esa shaxsiy foyda ko'rish bo'lmay, balki turkistonliklarni zamonaviy ahvol bilan tanishtirib, g'aflet uyqusidan uyg'otish ekanini e'tirof etadi [14; 111–112-b.].

Gazetaning g'oyalari imperiya hukumatining Turkistonda yurgizayotgan siyosatiga qarshi edi. Shuning uchun ham 10-soni chiqqach, hukumatga qarshi maqolalar chop etganlikda ayblanib, Turkiston general-gubernatorining farmoyishi bilan nashri taqiqlandi, mol-mulki musodara qilindi [22; 67-b.]. Bu davrda uning obunachilari 300 dan ortiq edi.

Mustamlakachi ma'muriyat tomonidan 1907-yili Saidkarim Saidazimboyevga "Tujjor" haftalik gazetasini chiqarishga ruxsat berilgan. 21-avgustdan chiqa boshlagan gazeta o'z maqsadi haqida: *"Tujjor" yolg'iz men uchun bo'lmay, balki jami dindoshlarimning o'z huquq va milliy va moliyalarini talab qilmoqlari uchun buyuk bir advokatdir. "Taraqqiy" va "Xurshid"lar kabi "Tujjor"ni ham hukumat to'xtatadur, deb hech bir xavfetmasin. Chunki "Tujjor"ning siyosiy va maishiy maslagi hukumatga xilof va qarshi emasdur"*, deb ta'kidlab o'tiladi. Uning obunachilari yo'qligidan 36 ta soni chiqqanidan so'ng to'xtab qoladi [22; 9-b.].

Jadidlar mustamlakachi hukumatning tazyiqiga qaramay, yana bir gazeta — "Shuhrat" gazetasiga asos soldilar. Uning bosh muharriri Abdulla Avloniy bo'lib, Munavvarqori Abdurashidxonov va tatar ziyoliysi Ahmadjon Bektemirov gazeta faoliyatiga yaqindan yordam berganlar. Shuningdek, gazeta ishida Mahmudxo'ja Behbudiy, Tursunxo'ja Hamidxo'ja o'g'li, Miskin kabi taraqqiyparvarlar ham ishtirok etganlar. Gazeta 300 nusxada haftada bir marta chiqarilib, hukumat tazyiqi bilan oxirgi soni 1908-yil 14-fevralda chop etilgan.

"Shuhrat" gazetasi yopilishi bilan Ahmadjon Bektemirov muharrirligida 1908-yil 9-apreldan "Osiyo" gazetasi chiqa boshlaydi. Bu gazeta "Shuhrat" gazetasining sarmoyasi bilan chiqarilgan bo'lib, uning umri juda qisqa bo'ldi: 5-sonidan keyin, 1908-yil 27-mayda hukumat tomonidan "zararli" yo'nalishda bo'lgani uchun yopib qo'yiladi. "Osiyo" gazetasi ishida "Xurshid" va "Shuhrat" gazetalarda faoliyat yuritgan taraqqiyparvar kishilar ishtirok etishgan. Gazetaning ikkinchi sonida Mahmudxo'ja Behbudiy xalqqa milliy gazeta zarurligini ta'kidlar ekan, mahalliy aholining asosiy qismi "Turkiston viloyatining gazetasi"ni "missionerlik" gazetasi yoki "foydasi yo'q" gazeta deb hisoblab, uni o'qimayotganligini qayd etib o'tgan [21; 53-b.]. Bu gazetaning 5 ta soni chiqar-chiqmas, hukumat tomonidan majburiy to'xtatilgan.

Shu tariqa Rossiya imperiyasining o'lkada yurgizgan siyosati natijasida *"Taraqqiy"lari o'lib, "Xurshid"lari so'nib, "Shuhrat"lari torayib bordi"* [11; 36-b.]. Turkistondagi ilk gazetalarning turli tazyiqlar va ta'qiblar natijasida qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, ularning sahifalarida XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolari yoritilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Jadidlar bir necha yil milliy matbuotsiz yashadilar va nihoyat, 1913-yil aprelida jadid taraqqiyparvarlarining Samarqanddagi dastlabki gazetasi — “Samarqand” gazetasi Turkiston jadidlarining rahnamalaridan Mahmudxo‘ja Behbudi muharrirligida chiqqan boshladi.

“Samarqand” gazetasi uch tilda: o‘zbek, fors va rus tillarida chiqib turgan. “Samarqand” gazetasi haftada 2 marta chiqqan, avval 2 sahifada, 7–8-sonidan keyin 4 sahifada chiqqan boshlagan bo‘lib, 400–600 nusxadan iborat bo‘lgan. Maqsadi esa: *“Rusiya kulturi, ilmi, hunari va sanoatiga oshina bo‘lishlarida ojizona tashviq etmoqdin iboratdir. Maktab bo‘lsun, madrasa bo‘lsun, isloh va taraqqiyotga yordam uchun xalqni da‘vat qilmoq edi. Fasid urf va botil rasmlarini, yomon odatlarni shar‘an islohihga ko‘shish etmoq”*, edi. Behbudi ushbu maqolada gazetaning rus tilida ham chiqarilishidan maqsad, avvalo, Turkiston xalqini qiziqtirgan masala va muammolarni Rossiyaga hamda uning xalqiga bildirish, milliy taraqqiyparvarlarning dunyoqarashlarini Rossiyadagi boshqa xalqlarga bildirib, ular bilan yaqinlashish ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Gazeta faoliyatida Saidrizo Alizoda, Hoji Muin, Siddiqiy, Akobir Shomansur, Tavallo singari taraqqiyparvarlar ishtirok etganlar. Lekin shunga qaramay, tahririyatga juda kam maqolalar kelib, nashr etilgan maqolalarning aksariyati Behbudiya tegishli bo‘lgan. Shundan so‘ng Turkistonlik mualliflarga yo‘llagan murojaati natijasida maqolalar soni ko‘paygan.

Behbudiya mazkur tanqididan keyin gazeta Turkistonning turli joylaridan xabar va maqolalar jo‘natilganini kuzatish mumkin. Jumladan, Munavvarqorining maqolasi bosilib chiqarilgan. Gazetada turli ruknlar bo‘lib, publitsistik maqolalardan tashqari, “Xorijiya xabarlar”, “Doxiliya xabarlar”, “Bolqon muhorabasi” bo‘limlarida turlicha xabarlar berib borilgan.

“Samarqand” gazetasining sotilish narxi uning tannarxiga to‘g‘ri kelmasdi, ya‘ni gazetaning bosilishidan o‘quvchi qo‘liga yetib borgunigacha bo‘lgan xarajatlar obunachilardan tushgan puldan oshiq ketardi. Gazetani chop etish uchun yetmagan mablag‘ni Behbudiya o‘zi va ba‘zi taraqqiyparvar ziyolilar o‘z yonlaridan to‘lar edi. 500 dan ortiq mushtariysi bo‘lgan gazeta 5 oy mobaynida muharrirga pul bermasdan, faytun puli hisoblanmay, gazeta idorasiga ijara puli to‘lamasdan, faqat murattib, kotib va muvazzaflarga, matbaa, qog‘oz va markaga pul sarflab, 1000 so‘mdan oshiq zarar ko‘rgan. Uni noshir va bir nechta samarqandlik taraqqiyparvarlar berganligi uchun mushtariylarga zarari tegmagan edi.

Gazeta sahifalarida bosilgan maqola va xabarlar hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ular Turkiston tarixining madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy masalalarini o‘rganishda muhim manbalardan biri bo‘lib qoladi. Chunki bu gazeta o‘sha davr ruhini, ijtimoiy fikr rivojlanishini o‘zida mujassamlashtirganki, bunday ma‘lumotlarni boshqa manbalardan topish qiyin, albatta. Bu gazeta nafaqat Toshkentda, balki Turkistonning boshqa joylarida ham taraqqiyparvar kuchlarga o‘z g‘oyalarini va qarashlarini tarqatish uchun minbar kerak ekanligini bildirdi va shu ehtiyoj hisobiga yuzaga keldi.

1913-yilning 12-dekabrida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevga “Sadoi Turkiston” gazetasini chiqarishga ruxsat beriladi. Lekin mablag‘ yetishmaganidan gazetani chop etish orqaga suriladi. 1914-yil 1-aprelda Toshkentda bu gazeta chop etila boshlandi. “Turkestanские ведомости” gazetasi mazkur gazetaning chiqishini mahalliy aholi samimiy qarshi olganini va u tez tarqalib ketganini e‘tirof etgan [16].

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev gazetaning 1-sonida shunday deb yozgan edi: *“... biz ham oliya muqaddas onamiz bo‘lgan Vatanga shoyad ojizona bir xizmat bo‘lsa deb zimmamizga vatan tarjumonligi kabi og‘ir yukni yuklamakka jasorat etduk”* [8]. Bu gazetada milliy matbuotning birinchi vazifasi faqat turli xabarlar yozishdan iborat bo‘lmay, balki millatning mavjud muammo va nuqsonlarini maydonga chiqargan holda islohot ishlarini amalga oshirish ekanligi ta’kidlangan va millat rivojiga xizmat qilish o‘z vazifasi deb bilingan [8]. Bu vazifani amalga oshirishda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Saidnosir Mirjalilov, Hamza Hakimzoda, Xolid Said, Abdulhamid Sulaymon, Mo‘minjon Muhammadjonov, Abdulla Erg‘oziyev, Nushiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Mulla Said Ahmad Vasliy, Fuzayl Jonboyev, Badriddin A‘lami, Hoji Muin, Shokirali Rahimiy, Rauf Muzaffarzoda kabi millat fidoyilari muharrirga yaqindan yordam berdilar.

Boshqa jadid gazetalari kabi mazkur gazeta ham hukumat tomonidan muntazam ravishda sinchiklab tekshirib borilgan, agar *“to‘g‘ri yo‘nalishdan”* chiqqudek bo‘lsa, darhol Turkiston general-gubernatorini xabardor qilish vazifasi qo‘yilgan [21; 59-b.]. Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazetasi”ning “Sadoi Turkiston” gazetasiga munosabati ziddiyatli bo‘lgan. Har bir sonidagi ma‘lumotlar sinchiklab tekshirib borilgan. Gazetaning faol ishtirokchilaridan biri Mo‘minjon Muhammadjonov o‘z xotiralarida: *“Chor chinovniklari, xususan, Ostroumov to‘ra bu gazetani tezroq yoqtirib qo‘yish fikrida yurar edi”* [15; 125–126-b.], deb eslaydi.

Ushbu gazeta hukumat tazyiqidan tashqari, og‘ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan edi. Kundalik nashr sifatida paydo bo‘lgan “Sadoi Turkiston” haftada bir marta chiqqan boshladi va umuman yopilish xavfi paydo bo‘ldi. Shunda gazeta millatparvar boylarga murojaat ham qiladi. Gazeta tahririyati moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish choralarini izlab, milliy teatr truppassi tuzib, Farg‘ona vodiysiga safarga chiqqan [6]. Ammo gazeta tahririyati qo‘llagan bu tadbirlar ham uning moddiy ahvolini yaxshilay olmadi va “Sadoi Turkiston” gazetasi 1915-yil 10-aprelda mablag‘ yetishmaganidan 66-soni chiqarilgach, to‘xtatib qo‘yildi.

Navbatdagi jadid gazetasi “Sadoi Farg‘ona” Farg‘ona vodiysida tashkil qilindi. Uning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov, musahhihi Ashurali Zohiriy bo‘lgan. Gazetaning maqsadi haqida shunday deb yozadi: *“Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki xalqimizga qo‘limizdan kelgan qadar xizmat etmoqdir. Xalqimizda matbuot va jaridai milliyaga kundan-kun shavq va rag‘bat o‘zgardi. Gazeta moddiy jihatdan ta‘minlangan”* [7]. Gazeta ishida Usmon Nuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho‘lpon, Tavallo, Xolid Said, Said Ahmad Vasliy, Ibrohim Davron, Mullo Abdullabek Musabekhoji o‘g‘li, Shokirali Muxtorovlar faol ishtirok etganlar.

Bu gazeta 500–600 nusxada Obidjon Mahmudovning shaxsiy bosmaxonasida bosilgan, haftada 3 marta chiqqan, 1915-yil 10-aprelda qadar chiqqan 122 ta soni mavjud. Lekin bu gazeta ham mustamlakachi hukumat tazyiqi bilan o‘z

faoliyatini 1917-yil fevralda to'xtatishga majbur bo'ladi.

"Turkestanskije vedomosti" gazetasi Turkistondagi milliy gazetalarning yopilish sabablarini ko'rsatishga urinadi va: *"Ularning bir qismi davrning qarashlariga to'g'ri kelmaganligi uchun hukumat tomonidan, lekin aksariyat qismi mushtariylari yo'qligidan o'z-o'zidan faoliyatini to'xtatgan"* [10], — deb yozadi. Xuddi shunday fikrlar "Turkiston viloyatining gazetasi"da ham aytib o'tilgan [5].

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, "Taraqqiy" gazetasi uch oygina faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay, xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldira olgan. U yopilgach, Munavvarqori "Xurshid" degan gazeta nashr qildi, uni ham yopishgach, Abdulla Avloniy "Shuhrat" gazetasini chiqardi. Uni ham taqiqlashgach, "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalari chiqdi. Gazetalar va ularda ishlagan jadidlar faoliyatiga qaralsa, bu gazetalar turli nomlar bilan atalgan bir g'oyaning davomchilaridir. O'sha jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oya mustamlakachilik siyosatiga qarshi bo'lgani, xalqimizni taraqqiyot sari boshlagani uchun imperiya rasmiy nashrlari tomonidan turli ayblovlar va tuhmatlar yog'dirildi. Shuning natijasida mahalliy ma'muriyat vakillari tomonidan sud qilindi, mol-mulki musodara qilindi, faoliyati to'xtatildi. Ikkinchi tomondan esa keng xalq vakillarining mazkur gazetalarga bo'lgan e'tibori sust bo'ldi, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmadi, shuning uchun ham ularning faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. Lekin xalqimizning qalbidan mustaqillik orzusini to'la siqib chiqara olmadilar. Bu orzu yo'lida bobolarimiz boshlagan muborak ish yillar o'tib amalga oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Taraqqiy" gazetasi. – 1906-yil 14-iyun.
2. Abdirashidov Z. Turkistonda mustaqil matbuotning shakllanishi // Uzbekistan: Language and Culture. – 2020. – № 3. – B. 19.
3. Abdulla Avloniy. Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi // "Turkiston" gazetasi. – 1924-yil 24-iyun. – № 295.
4. Batafsil qarang: Mirzayev D. "Turkiston viloyatining gazetasi"da o'zbek milliy matbuotiga munosabat // "Turkiston ma'rifatparvar ziyolilari merosining fan, adabiyot, madaniyat hamda ma'naviyat taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2024. – B. 166–173.
5. Mahalliy matbuot xususida // "Turkiston viloyatining gazetasi". – 1916. – № 8.
6. Milliy teatr truppasi // Sadoi Turkiston. – 1915. – № 54.
7. Sadoi Farg'ona. – 1914. – № 1.
8. Vazifamiz nima? // Sadoi Turkiston. – 1915. – № 62.
9. Abdulla Avloniy. Burungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi // Yosh leninchi. – 1989-yil 18-iyul.
10. Андреев Гр. Сартовская печать // ТБ. – 1916. – № 36.
11. Ziyos. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – B. 36.
12. Ziyos Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – B. 15.
13. Дубовицкая И. М. Н. П. Остроумов и становление СМИ в Средней Азии в конце XIX – начале XX в. // История и современность. – 2009. – № 2. – С. 196.
14. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 111–112.
15. Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. – Toshkent: O'zdamnashr, 1959. – B. 125–126.
16. Туркестанские ведомости. – 1914. – № 80.
17. Turkiston general-gubernatorining 1883-yil 30-yanvardagi 28-raqamli farmoyishi // "Turkiston viloyatining gazetasi". – 1883-yil 15-fevral.
18. O'z MA. 1-jamg'arma, 28-ro'yxat, 60-ish, 82-varaq orqasi.
19. O'z MA. 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2176-ish, 14-varaq; 2155-ish, 67-varaq.
20. O'z MA. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 49-ish, 735-varaq.
21. Shodmonova S. Turkiston tarixi matbuot ko'zgasida (1870–1917-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – B. 49.
22. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870–1924-yillar). – Toshkent: O'zdamnashr, 1959. – 67 b.